

MAHMUD ZAMAXSHARIY “AL-MUFASSAL” ASARINING MATNSHUNOSLIK ASPEKTIDA O‘RGANILISHI

Asqarova Saidaxon,

Graduate student of International Islamic Academy of Uzbekistan

asqarova@mail.ru

32/7, Khuroson, Tashkent, 100011. Uzbekistan

ANNOTATSIYA

Alloma Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasiga oid bo‘lgan shox asari “Al-Mufassal fi san’ati-l-e’rob” bugungi kunga qadar dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu asar yozilish uslubi, aniqligi hamda tarixiyligi jihatidan tilshunos va manbashunos tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilmoqda. Ushbu maqolada XIX-XI asr oralig‘ida asarning matnshunoslik aspektida o‘rganilishi yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Zamaxshariy, “Al-Mufassal”, J.P.Brox, qo‘lyozmalar, ilmiytanqidiy matn.

Kirish. Mahmud Zamaxshariy islom hamda arab tilshunosligiga oid ilmlarda yuqori marralarni zabit etdi. Uning tilshunoslikka oid asarlari ichida “Al-Mufassal fi san’ati-l-e’rob” asari alohida e’tiborga sazovordir. Zamaxshariy arab tili va uning asosi hisoblangan e’rob (fleksiya) bilan tanish bo‘lmagan kishi Allohning kalomi bo‘lmish Qur’oni Karimni tushuna olmasligiga amin edi. “Al-Mufassal” asarining muqaddimasida olim bu haqida shunday deb yozadi: “E’rob ilmining foydasi juda ko‘p, kimki uni egallamasdan Allohning kalomini tafsir qilmoqni istasa, ko‘r-ko‘rona ish tutibdi. E’rob – bayon ilmining bir pog‘onasi bo‘lib, u Qur’oni Karimning nozik jihatlarini ochib beradi. Undan to‘silgan kishi yaxshilik yo‘lida yurishdan

to‘silgandir³⁴’. Asar yaratilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha jamoatchilik tomonidan ulkan shuxratga ega bo‘lib kelmoqda.

Asosiy qism. Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asarini ilk bor matniy tadqiq qilgan – J.P.Broxdir. J.P. Brox Norvegiyalik sharqshunos, tilshunos olim, semit tillari mutaxassis edi. Uning eng muhim ishi “Al-Mufassal – opus de grammatica arabicum³⁵” (“Al-Mufassal – arab tili grammatikasiga oid risola” nomli tadqiqoti bo‘ldi. U ilk bor 1859 – yil Kristiania, hozirgi Oslo shahrida nashr etilgan. J.P.Brox o‘zining ushbu ishini lotin tilidagi muqaddima bilan boshlagan. Muqaddimada J.P.Brox ushbu tadqiqotda “Al-Mufassal” asarining 11 ta qo‘lyozmasidan foydalangan bo‘lib, ulardan 10 tasi Leypsig, Berlin, Parij, Got hamda Gavn shaharlaridagi kutubxonalarida saqlanayotgani haqida ma’lumot bergen. 11-qo‘lyozma esa Tyubengen shahridagi bir professorning shaxsiy kutubxonasidan olib turilgan. J.P.Brox 11 ta qo‘lyozmani shartli ravishda A,B,C,D,E,F,G,H,I,J,K alifbo harflari bilan nomlagan. Muqaddimadan so‘ng tadqiqotchi 60 bet nusxalar o‘rtasidagi tafovutlarni shartli belgilar yordamida ko‘rsatib bergen. Bundan tashqari, J.P.Brox zarur o‘rinlarda so‘zlarga harakat qo‘yanini aytgan³⁶.

J.P.Brox asar matnini to‘liq keltirgach, unga ilova qilib quyidagi fixristlarni keltirgan:

1. asardagi baytlar fixristi;
2. erkaklar, ayollar, qabila va kitob nomlari fixristi;
3. lug‘at va istilohlar fixristi
4. tadqiqotchi xato deb sanagan so‘zlar fixristi.

J.P.Broxning ushbu tadqiqot ishi 1879 – yil ikkinchi marta nashr etilgan.

1878 – yil Myunhen universitetining nemis ilohiyotchisi, sharq tillari professori, filolog Ernest Tramp “Beiträge zur Erklärung des Mufassal³⁷” (Mufassalning tarjima va tavsifi) nomli risolasini chop ettirdi. Ernest Tramp asarning muqaddimasidan –

³⁴ المختوى. المفصل. – القاهرة: مطبعة التقديم، ١٩٠٥. – ص. ٤.

³⁵ Broch. J.P.Zamahšarī “Al-Mufaṣṣal – opus de grammatica arabicum”. – Christiania [Oslo], 1859. – 232 p.

³⁶ Broch. J.P.Zamahšarī “Al-Mufaṣṣal – opus de grammatica arabicum”. – Christiania [Oslo], 1859. – p. – 230.

³⁷ Tramp E. Beiträge zur Erklärung des Mufassal.// Sitzungsberichte der philosophisch-philologischen und historischen Classe der k. b. Akademie der Wissenschaften – Munchen, 1878. – S. 198-316

maf'ul bihi (to'ldiruvchi) bobigacha tarjima qilgan. Tarjimada filolog istilohlar va atoqli otlarni sahifa ostida bayon qilgan. Bundan tashqari murakkab jumla va qoidalarni Ibn Ya'ishning "Sharh"i hamda ibn Molikning "Alfiya" si yordamida sahifa ostida sharhlab bergen. Bu asarning nashrlarini Berlin kutubxonasida va Bergen universitetining O'rta sharq va islomshunoslik markazidan topish mumkin.

1971 – yil taniqli matnshunos, navoiyshunos olim, filolog Alibek Rustamov "Mahmud Zamaxshariy³⁸" nomli risolani Toshkentda nashr ettiradi. Ushbu risola Zamaxshariyning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, Alibeg Rustamov Zamaxshariyning 19 ta asarini sanab ularni qisman ta'riflaydi. Ushbu asarlar ro'yhatida "Al-Mufassal" asarini ham tilga olib: "Arab grammatikasiga oid juda qimmatli asar. Nemis tiliga tarjima qilingan. Yevropa va Misrda nashr etilgan³⁹," – deb yozadi. Risolada asosan Zamaxshariyning "Muqaddamatu-l-adab" asari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

1992 – yil atoqli o'zbek islomshunos olimi, sharqshunos, tarix fanlari doktori, professor U. Uvatov Mahmud Zamaxshariyning "Navobig'u-l-kalim" risolasini – "Nozik iboralar⁴⁰" nomi ostida tarjima va sharhlar bilan nashr ettiradi. Tarjimadan avval U. Uvatov Mahmud Zamaxshariyning hayoti va ilmiy faoliyatiga to'xtaladi. U. Uvatov Zamaxsharining asarlarini sanab, ularni tavsiflaydi. "Al-Mufassal" asari tavsifida olim asarning o'z davridagi ahamiyati, katta e'tirofga sazovor bo'lgani, asarga yozilgan mashxur sharhlar hamda ularning qo'lyozmalari, "Al-Mufassal" asarining tarkibi haqida qisqa-lo'nda ma'lumot beradi.

2004 – yil Ummon shahrida "Al-Mufassal fi ilmi-l-arabiya⁴¹" kitobi nashr etildi. Ushbu monografiya Doktor Faxr Solih Qadoraning ilmiy ishi bo'lib, unda tadqiqotchi uch qo'lyozma asosida "Al-Mufassal" asarining ilmiy-tanqidiy matnini

³⁸ Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Fan, 1971. – 32 b.

³⁹ Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Fan, 1971. – B. 11.

⁴⁰ Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar G' Sharhlar muallifi va tarjimon U. Uvatov. – T.: Kamalak, 1992. – 80 b.

⁴¹ قرآن فارسی، المفصل فی علم العربیة. – عمان: دار عمار، ٢٠٠٤. – ٥٦٥ ص.

ishlab chiqdi. Bu qo‘lyozmalar: 1. Irlandiyadagi Chesterbiti kutubxonasida saqlanayotgan “Al-Mufassal” asari 647 – yilda Yahyo ibn Ali al-Ansoriy tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmasining mikrofilm. Ushbu mikrofilm Riyozdagi Muhammad ibn Saud kutubxonasida 323 inventar raqami ostida saqlanadi. Tadqiqotchi bu nusxani asos nusxa sifatida tanlab, uni to‘liq saqlangan va boshqa nusxalarga nisbatan xatolari kam, deb ta’riflaydi⁴². 2. Irlandiyadagi Chesterbiti kutubxonasida saqlanayotgan “Al-Mufassal” asari qo‘lyozmasining mikrofilm. Qo‘lyozmaning ko‘chirilgan sanasi va kotini haqida ma’lumotlar yozilmagdn. Ushbu mikrofilm Riyozdagi Muhammad ibn Saud kutubxonasida 3261 inventar raqami ostida saqlanadi. Tadqiqotchining yozishicha, qo‘lyozmaning bu nusxasida kotib “kitobning as nusxasida shunday yozilgan, boshqa nusxalarida esa bunday,” deb nusxalar orasidagi tafovutni keltirib o‘tgan. Bunday jumlalar kitob hoshiyasida ko‘p o‘rinlarda keltirilgan. Bu esa, ushbu nusxani ko‘chirgan kotib asarning asl nusxasini boshqa nusxalar bilan solishtirib ko‘chirganini bildiradi⁴³. 3. 1323 – yil Qohirada nashr etilgan “Al-Mufassal” asari⁴⁴. Ushbu kitob hoshiyasida Muhammad Badriddin al-Halabiyning “Al-Mufazzal fi sharhi abyati-l-Mufassal” asari ham mavjud. Bu nashr o‘zining to‘liqligi bilan mashxur.

Bu kitob “Al-Mufassal” asarining ilmiy nashri bo‘lib, u kirish, muqaddima bilan boshlangan. Muqaddimada Zamaxshariy, uning hayoti va ilmiy faoliyati yoritilgan. Shuningdek “Al-Mufassal” asari, unga yozilgan sharhlar haqia ma’lumotlar keltirilgan. Muqaddimada tadqiqotchi ilmiy-tanqidiy matn tuzishda foydalanilgan nusxalar hamda matn tuzishdagi uslubini ko‘rsatib bergen. Tadqiqotchi qo‘lyozmaning birinchi nusxasini shartli ravishda “أ”, ikkinchi nusxani “ب”, asarning qohira nashrini esa “ط” harflari bilan belgilagan. Muqaddimadan so‘ng ikki qo‘lyozmaning mikrofilmidan uch betdan keltirilgan.

⁴² O’sha asar. – B. 14.

آخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية. – عمان: دار عمار، ٢٠٠٤. – ص. ١٥. –
زمخشري. المفصل. – القاهرة: مطبعة التقىم، ١٩٥٠. – ص. ٣٩٣.

Tadqiqotchi ilmiy apparatda nusxalar o‘rtasidagi farqlarni keltirishdan tashqari asardagi tushunish qiyin bo‘lgan jumlalarning sharhlarini Sibavayhining “Kitobi”, Ibn Ya’ishning sharhi hamda “Shafiya” sharhiga asoslanib keltirgan. Kitob oxirida Qur’on oyatlari, oyatlarning qiroatlari, hadis matnlari, maqol va matallar, she’rlar, atoqli otlar, geografik joy hamda qabila nomlari, qiyin so‘zlar lug‘ati fixristlari ilova qilingan.

2014 – yili Tunisda nashr etilgan “Ash-shahid al-Qur’aniy fi kitabi-l-Mufasssal li-z-Zamaxshariy⁴⁵” (“Zamaxshariyning “Al-mufassal” asaridagi Qur’oniylar dalillar”). Kitob muallifi Doktor Muhammad al-Habib al-Alloni. Bu monografiya 2002 – yil Muhammad al-Habibning Tunisdagi “Zaytuniya” universitetida doktorlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan ilmiy ishdirdi. Monografiya 4 bobdan iborat bo‘lib ular quyidagicha:

- I bob. Nahv hamda Tafsir ilmida Qur’on oyatlaridan dalil keltirish
- II bob. Zamaxshariyning Qur’on oyatlaridan dalil keltirishi
- III bob. Zamaxshariyning Qur’on oyatlaridan dalil keltirish uslublari
- IV bob. Nahv ilmida Qur’on oyatlaridan dalil keltirishning o‘ziga xos jihatlari.

Monografiya 458 betdan iborat. Ushbu ilmiy ishda Doktor Muhammad al-Habib Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasi qoidalarini Qur’on oyatlari orqali asoslash uslublarini, Qur’on qiroatlarini tanlashdagi mezonlarini ochib bergan. Bu orqali muallif “Al-Mufassal” asarining xususiyatlarini, arab tili grammatikasini chuqur o‘rganishda o‘quvchi uchun qulay kitob bo‘lganini ko‘rsatib bergan.

Xulosa. Bizga ma’lumki, Zamaxshariyning ushbu asariga o‘z davrida 100 ga yaqin sharh, hoshiya, raddiya hamda muxtasarlar yozilgan. Bugungi kunda ham “Al-Mufassal” asarini matniy jihatdan tadqiq qilish, uni manbashunoslik aspektida o‘rganish va fanga tadbiq etish ishlari amalga oshmoqda. Yurtimizda ushbu asarning bir nechta qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ularni yig‘ib tadqiq etish oldimizdagil dolzarb masalalardan biridir.

⁴⁵ محمد الحبيب العلاني. الشاهد القرآني في كتاب "المفصل" للزمخشي. – تونس: دار سخنون للنشر والتوزيع، ٢٠١٤. – ص. ٤٥٨.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

- الزمخشري. المفصل. – القاهرة: مطبعة التقديم، ١٩٠٥ . ١.
2. Broch. J.P.Zamahšarī “Al-Mufaṣṣal – opus de grammatica arabicum”. – Christiania [Oslo], 1859.
3. Trumpp E. Beiträge zur Erklärung des Mufassal.// Sitzungsberichte der philosophisch-philologischen und historischen Classe der k. b. Akademie der Wissenschaften – München, 1878.
4. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Fan, 1971.
5. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar G‘ Sharhlar muallifi va tarjimon U. Uvatov. – T.: Kamalak, 1992.
6. قخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية. – عمان: دار عمار، ٢٠٠٤ .
7. محمد الحبيب العلاني. الشاهد الفرآني في كتاب "المفصل" للزمخشري. – تونس: دار سحنون للنشر و التوزيع، ٢٠١٤ .